



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-dekabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi***

Tel. 65-223-75-63

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr oyi, foizda)




2025- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 255 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 66 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 14 189 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **109,3** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 22 101,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 109,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 953,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 147,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,3%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 529,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 117,3 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	22 101,5	109,3
Buxoro shahri	6 337,6	110,4
Kogon shahri	777,4	109,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	546,8	114,9
Buxoro	1 537,6	109,2
Vobkent	718,1	110,0
G'ijduvon	3 965,0	108,5
Kogon	635,1	107,9
Qorako'l	1 499,7	107,2
Qorovulbozor	421,8	107,5
Peshku	790,2	114,9
Romitan	1 386,4	107,4
Jondor	1 481,7	109,6
Shofirkon	919,0	109,3

2024- yilning yanvar-dekabr oyida 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (110,4%), Olot (114,9 %) va Peshku (114,9 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 30,2 % bilan 6 337,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,0 % bilan 421,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd. so'm

Buxoro sh	6 337,6
G'ijduvon	3 965,0
Buxoro	1 537,6
Qorako'l	1 499,7
Jondor	1 481,7
Romitan	1 386,4
Shofirkon	919,0
Peshku	790,2
Kogon sh.	777,4
Vobkent	718,1
Kogon	635,1
Olot	546,8
Qorovulbozor	421,8




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-dekabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 20 147,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 7,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 35,3 % ga o'sdi va 1 953,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,6 %), Qorovulbozor (99,6 %) va Romitan (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (18,6 %), Kogon (20,9 %) va Peshku (32,6 %) tumanlarida kuzatildi.



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Olot

5 202,4

Buxoro

8 537,7

Vobkent

4 790,6

G'ijduvon

12 200,1

Kogon

7 436,2

Qorako'l

8 663,8

Qorovulbozor

20 984,5

Peshku

5 972,5

Romitan

9 097,4

Jondor

7 914,9

Shofirkon

4 904,1

Buxoro sh.


21 310,0

Kogon sh.

11 941,6

2024- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 10 726,3 ming so'm (2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,5 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (21 310,0 ming so'm), Qorovulbozor (20 984,5 ming so'm) va G'ijduvon (12 200,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	2 529,0	117,3
Buxoro shahri	412,4	162,1
Kogon shahri	65,7	117,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	232,7	110,5
Buxoro	53,9	152,9
Vobkent	223	117,5
G'ijduvon	601,3	108,7
Kogon	5,7	114,0
Qorako'l	377,2	100,1
Qorovulbozor	42,6	114,2
Peshku	131,2	114,7
Romitan	148,6	115
Jondor	133,5	117,7
Shofirkon	101,2	125,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda (2024- yil yanvar-dekabr)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 529,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 117,3% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 310,2 mlrd. so'mni (125,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 218,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (109,6%).












2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 310,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (621,7 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>621,7 mlrd. so'm</p>  <p>47,5 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>177,0 mlrd. so'm</p>  <p>13,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>95,9 mlrd. so'm</p>  <p>7,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>53,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>70,7 mlrd. so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>29,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>14,7 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>38,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>9,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,7 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>26,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>10,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>163,0 mlrd. so'm</p>  <p>12,4 %</p>

2024- yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 218,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 048,6 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 160,2 mlrd. so'mni, otlar – 6,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 3,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>656,9 mlrd. so'm</p>  <p>53,9 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>233,9 mlrd. so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>157,8 mlrd. so'm</p>  <p>12,9 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>118,8 mlrd. so'm</p>  <p>9,8 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>41,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>2,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	10 058,3	111,6
Buxoro shahri	497,5	114,1
Kogon shahri	30,7	106,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	10,5	104,5
Buxoro	39,2	122,1
Vobkent	56,9	130,4
G'ijduvon	99,9	100,9
Kogon	19,8	110,8
Qorako'l	28,3	101,8
Qorovulbozor	17,0	100,2
Peshku	25,7	100,1
Romitan	59,9	103,5
Jondor	18,6	103,4
Shofirkon	15,5	100,3

2024- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 058,3 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	4 596,7	100,0
Buxoro shahri	3 743,4	81,4
Kogon shahri	0,9	0,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	1,9	0,0
Buxoro	1,9	0,0
Vobkent	388,3	8,5
G'ijduvon	430,9	9,4
Kogon	0,4	0,0
Qorako'l	5,2	0,1
Qorovulbozor	2,9	0,1
Peshku	3,2	0,1
Romitan	5,5	0,1
Jondor	8,1	0,2
Shofirkon	4,1	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (3 743,4 mlrd. so'm), Vobkent (388,3 mlrd. so'm), G'ijduvon (430,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 4 596,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 758,1 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 85,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 838,6 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 141,0 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 18 023,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 13 078,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 72,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	18 023,9	106,5
Buxoro shahri	6 094,5	113,5
Kogon shahri	310,2	75,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	128,7	3,7 m.
Buxoro	821,6	120,4
Vobkent	2 225,7	130,3
G‘ijduvon	1 176,7	101,6
Kogon	1 131,4	104,2
Qorako‘l	283,4	91,5
Qorovulbozor	490,6	46,0
Peshku	1 186,1	117,2
Romitan	822,2	111,4
Jondor	518,0	74,9
Shofirkon	218,3	85,8

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 571 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 39 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar Olot (76,8 m.), Jondor (4,7 m.) va Buxoro (195,7 %) tumanlarda kuzatildi.